

Baxodirjonov Moxirbek Ilhomjon O'g'li

Namangan Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar : Akayeva Ma'rifat Abduhalikovna

Namangan Davlat Universiteti

Davlat huquqi va boshqaruvi kafedrasini mudiri

Yuridik fanlar nomzodi: Dotsent

Annotatsiya: *Maqolada saylov tizimining demokratik jamiyatdagi o'рни va ahamiyati, uning istiqbolli islohotlari, demokratik saylovlar hokimiyatning boshqaruvi sohasidagi masalalarni kuch bilan hal etishning mutlaqo aksi ekanligi, saylov jarayonlari demokratiyaning asosiy tarkibiy elementi ekanligi, qolaversa, davlat rahbari hamda boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslarini lavozimiga saylash, fuqarolarni saylash va saylanish huquqlarini Konstitutsiya va qonunlar bilan kafolatlanganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu maqola orqali siz, saylov tushunchasini, davlat hokimiyatining saylash va tayinlash yo'li bilan shakllantirilishining asosiy yo'nalishlari haqida bilib olishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *demokratiya, Markaziy saylov komissiyasi, Oliy Majlis, Qonunchilik palatasi, Prezident, kodeks, umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri, yashirin, yosh tsenzi.*

Абстрактный: *В статье рассматриваются роль и значение избирательной системы в демократическом обществе, ее перспективные реформы, то, что демократические выборы являются полной противоположностью решения вопросов в сфере управления силовым путем, что избирательные процессы являются основным структурным элементом демократия, а, кроме того, избрание главы государства и должностных лиц органов управления, информирование граждан о праве голоса и праве быть избранным гарантируется Конституцией и законами. Благодаря данной статье вы можете узнать о понятии выборность, основные направления формирования государственной власти путем выборов и назначений.*

Ключевые слова: *демократия, Центральная избирательная комиссия, Олий Мажлис, Законодательная палата, Президент, кодекс, общий, равный, прямой, тайный, молодежный цензор.*

Abstract: *In the article, the role and importance of the electoral system in a democratic society, its prospective reforms, the fact that democratic elections are the complete opposite of resolving issues in the field of governance by force, that electoral processes are the main structural element of democracy, and, in addition, electing the head of state and officials of governing bodies, citizens information about the right to vote and the right to be elected is guaranteed by the Constitution and laws. Through this article, you can learn about the concept*

of election, the main directions of the formation of state power through election and appointment.

Key words: *democracy, Central Election Commission, Oliy Majlis, Legislative Chamber, President, code, general, equal, direct, secret, youth censor.*

Adabiyotlar va metodlar

Maqolani tayyorlashda internet tarmog'idagi xalqaro jurnal manbaalari va ilmiy adabiyotlardan foydalanildi. Mamlakatimizning bosh maqsadi – demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bo'lib, uning asosiy shartlaridan biri xalq hokimiyatchiligini ta'minlash masalasidir. Demokratiya keng ma'noda qo'llaniladigan atama hisoblanib, uning tamoyillari xalq hokimiyati, xalqning xohish irodasi va ochiq, erkin saylovlar pirovardida bo'lgan fuqarolik jamiyatidir.

Ilmiy maqolani tayyorlashda umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy – huquqiy tahlil, statistik va amaliyot materiallarini o'rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Muhokama va natija:

Saylovlar demokratik davlatlar taraqqiyotida va fuqarolarning siyosiy huquqlari tizimida muhim konstitutsiyaviy-huquqiy institut sifatida namoyon bo'ladi. **Saylov** — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma – yon yuradi. Bu iboraning ma'nosini mamlakatning boshqaruv organlariga o'tkaziladigan saylov jarayonlarida bevosita xalqning hamda ular saylagan vakillik organlari a'zolarini ishtiroki orqali ifodalash mumkin. Saylov tizimida ko'zga ko'rinarli islohotlarning biri sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasining **2019 yil 15 fevral** kuni bo'lib o'tgan navbatdagi yalpi majlisida ko'rib chiqilgan **“O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksini”** loyihasi ekanligini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasida ushbu qonun qabul qilinguniga qadar **“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida”**gi, **“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida”**gi, **“Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”**, hamda **“Fuqarolar saylov huquqlarini kafolatlash to'g'risida”**gi qonunlar bilan saylov o'tkazilgan.

Saylov jarayonlarini tashkil etish va fuqarolarning saylovda ishtirok etish huquqlari **“Saylov kodeksi”**, **“Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”** bilan, shuningdek **“O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi”** orqali tartibga solinadi.¹³ Saylov huquqi deganda, bevosita saylovlarni tashkil etuvchi va ularning faoliyatini tartibga soluvchi huquq normalari va fuqarolarni saylash va saylanish huquqlari tushuniladi.

¹³ Konstitutsiyaviy huquq – O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020.

O'zbekiston Respublikasida saylov jarayonlarini tashkil etish, olib borish va uning yakuniy hulosalarini berish "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi" tomonidan amalga oshiriladi.

Saylov o'tkazilishining asosiy prinsiplari sifatida umumiylik, teng va to'g'ridan to'g'ri saylov huquqi asosida, yashirin ovoz berish yo'li kabilarni e'tirof etiladi. **Umumiy saylov prinsipi** mamlakatdagi barcha fuqarolarda kimligidan qat'iy nazar ya'ni, millati, tili, dini, irqi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar saylov huquqidan foydalanish huquqini beradi. **Teng** saylov huquqi prinsipi esa har bir saylovchining bir ovozga ega ekanligini ifodalaydi. **To'g'ridan to'g'ri** saylov huquqi asosida har bir fuqaro mahalliy davlat vakillik organlari, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, shuningdek, Prezidentni saylashda bevosita o'zi shaxsan ovoz berishi orqali amalga oshiriladi. **Yashirin ovoz berish yo'li bilan** ishtirok etish deganda fuqarolarning ovoz berishiga hech kim ta'sir qila olmasligini tushunish mumkin.

Fuqarolarning saylovda ishtirok etishi deyilganda esa, O'zbekiston Respublikasining **18 yoshga to'lgan** fuqarolarini saylov jarayonlarida hech qanday cheklovlarisiz ishtirok etish huquqi qonun bilan kafolatlanganligi misolida ko'rish mumkin (*qonunda belgilangan cheklovlar bundan mustasno*)¹⁴. Davlat hokimiyati organlariga saylanish uchun nomzodlarga belgilangan talablar mavjud. Masalan, birinchi navbatda yosh senzi hisoblanisa, keyingi o'rinlarda uning muomala layoqati, sudlanganlik holati kabi cheklovlar mavjud.

Ushbu cheklovlar ham inson huquqlarini takomillashishi bilan isloh etilmoqda. Xozir qonunchilikda sudlanganlik holatida islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, sudlanib, o'gir va o'ta o'gir jinoyat sodir etganlik uchun sudning hukmiga ko'ra ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda ishtirok etish huquqidan faqat qonunga muvofiq hamda sudning qarori asosida mahrum etilishini keltirish mumkin.¹⁵

O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv organlariga saylanishning yosh chegarasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bo'lib saylanish uchun 35 yoshdan kichik bo'lmagan, Oliy Majlisga saylanish uchun 25 yoshga to'lgan, Mahalliy vakillik organlariga saylanish uchun esa, 21 yoshga to'lgan fuqarolar ega hisoblanadi. Saylanish huquqida mavjud chegaralar sifatida ma'lum muddat mamlakat hududida yashagan bo'lishi, til bilishi va hokazolarni sanab o'tish mumkin. Bunday fuqarolarning saylov huquqida qo'llaniladigan shartlar, chegaralar boshqa demokratik mamlakatlar qonunlarida ham belgilangan.

O'z navbatida birinchi prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Erkin saylov va o'z xohish – irodasini bildirish prinsiplari, birinchi navbatda har bir shaxsning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish bo'yicha konstitutsiyaviy

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi "Adolat" 2019.

¹⁵ Konstitutsiyaviy huquq – O.T.Husanov "Yuridik adabiyotlar publish" 2020.

huquqi milliy davlatchiligimiz modelining asosini tashkil etadi.”¹⁶ degan fikri natijasida erkin saylov huquqi fuqarolarning siyosiy huquqi tizimida, davlatchiligimizda muhim rol o'ynashi e'tirof etildi hamda saylov huquqi ahamiyatiga oqilona baho berildi.

Saylov qonunchiligini takomillashtirish uzviy jarayon hisoblanadi va saylovlarni yanada demokratlashtirishga olib keladi. Bu masalaga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017 – yil 22 – dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida alohida to'xtalib, “Bu borada qabul qilingan 6 ta qonun va bir qator qonunosti hajjatlari, afsuski, haligacha yaxlit bir hujjat shakliga keltirilmagan. Shu sababli xalqaro norma va standartlarga javob beradigan yagona saylov kodeksini ishlab chiqish va qabul qilish lozim”¹⁷ – deb ta'kidlagan edi. Olib borilgan saylov islohotlari saylov kodeksini shakllantirdi.

Jamiyat rivojlanib, demokratlashib borishi har bir o'tayotgan saylovlarni takomillashuviga olib kelganidek, saylovlarni demokratlashuvi ham jamiyat rivojiga bevosita katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Yangi tahrirdagi qabul qilingan konstitutsiyada “Yangi O'zbekiston” poydevori uchun zamin yaratildi. Oliy Majlisga saylovlar mojaritar va proporsional olib borilishi va Senat a'zolari tarkibi bo'yicha o'zgarishlar huquqiy asoslantirildi

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki bizning mamlakatimizda saylov jarayonlarining takomillashuvi jamiyat demokratlashuvida davlatimiz rahbarining mashaqqatli mehnati, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga bee'tibor bo'lmaganligi sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: “Yaqinda «Yangi O'zbekiston – yangi saylovlar» shiori ostida bo'lib o'tgan saylovlar natijasida respublikamizda demokratik islohotlarni yuqori bosqichga olib chiqish uchun zarur bo'lgan yangi siyosiy muhit vujudga keldi”¹⁸ degan so'zlari fikrimning isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Konstitutsiyaviy huquq – O.T.Husanov “Yuridik adabiyotlar publish” 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Konstitutsiyasi., T.: “Adolat” 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi “Adolat” 2019.
4. Karimov I.A – mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. “O'zbekiston” 2010.

¹⁶ Karimov I.A – mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. “O'zbekiston” 2010, 35-bet

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 22 – dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi

¹⁸ Sh.Mirziyoyev – Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. “O'zbekiston”, 2018. 1-tom, 96 – bet

5. Sh.Mirziyoyev – Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. “O‘zbekiston”, 2018. 1- tom.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 – yil 22 – dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasining matni.

7. “O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar ” jurnali. 2024 – yil, 27 – son.

8.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. [ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН–III РЕНЕСАНСИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ИЖТИМОЙ ҲИМОЯСИ](#) PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS: a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022) - Copenhagen:2022. ISSUE 13 – 226 p. 94-99

9.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL. 203-207

<http://www.bestpublication.org/>

10.Саидисаков Саидахроп Саидакромович. ЭМОТИВНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И КАТЕГОРИЯ ЭМОТИВНОСТИ. 7 – TOM 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL.

<http://www.bestpublication.org/>. 198-202

12/Chuboyeva Ozodaxon “New Uzbekistan: Administrative Management Reform” Journal of Pedagogical Inventions and Practices ISSN NO: 2770-2367.

<https://zienjournals.com>

13.Kuvonbekovna C. O. OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI //PEDAGOG. – 2024. – T. 7. – №. 2. – С. 194-198.

<https://lex.uz>